



## **O`ZBEKISTONDA OZIQ-OVQAT HAVFSIZLIGINI NAZORAT QILISHNI TASHKIL ETISH**

**Nurmatova Nodira Nazirovna**

*Farg‘ona shahridagi Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti Qo‘qon oziq-ovqat sanoati va xizmat ko`rsatish texnikumining islab chiqarish ta`limi ustasi*

**Annotatsiya:** maqolada mamlakatimizda oziq-ovqat havfsizligini nazorat qilishni tashkil etishda davlat siyosatining yo`lga qo`yilayotgaligi tog`risidagi fikrlar o`z asini topgan.

**Kalit so`zlar:** oziq-ovqat xavfsizligi, ta’minlash, nazorat qilish, turmush tarzini, umr

Mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash dolzarb muammolardan biri bo`lib, doimiy davlar siyosatidan muhim o`rinlardan birini egallab kelgan. Zero, inson yashar ekan uni sog`lig iga ziyon-zahmat yetkazadigan oziq-ovqatlardan himoya qilib, unga sog`lom turmush tarzini kafolotlovchi muhitni yaratish, oziq-ovqat xavfsizligi va sog`lom ovqatlanishni ta’minlash O`zbekiston Respublikasining strategik maqsadidir. Keyingi besh yilda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish faoliyatini qo’llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini joriy etish, mavjud quvvatlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, yangi loyihalarga investitsiyalarni jalgan qilish, bozorda raqobatbardosh mahsulotlar turini yanada kengaytirish, import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish hisobiga yuqori qo’shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini 1,5 baravarga va eksport ko‘rsatkichlarini 2 baravarga oshirish maqsadida 2030-yilgacha mo‘ljallangan strategiyasi tasdiqlandi.

“Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning qo’shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonida Strategiyaning ustuvor yo‘nalishlari etib quyidagilar belgilangan:

- oziq-ovqat xavfsizligi va sog`lom ovqatlanishni ta’minlash hamda aholining barcha qatlamlari sog`lom va faol hayot kechirishi uchun tabiiy, moliyaviy va moddiy resurslardan foydalanishning samarali iqtisodiy va ekologik boshqaruv tizimlarini joriy qilish;
- erkin bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan mexanizmlar orqali strategik ahamiyatga ega qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari hamda ularning xomashyo zaxiralalarini yaratish;
- oziq-ovqat xavfsizligi va sog`lom ovqatlanishni ta’minlash jarayonida tabiiy va texnogen ofatlar, global siyosiy va iqtisodiy inqirozlar, pandemiya, harbiy amaliyot va boshqa hodisalarining salbiy ta’siri oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarlarni aniqlash, baholash va boshqarish, shuningdek, xabardor qilish va monitoring platformasini yaratish;

# "PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"

- ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash uchun ijtimoiy himoya milliy tizimlarini takomillashtirish va ularning barqarorligini ta'minlash;

- jamoatchilikni keng jalb qilgan holda oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizlik ko'rsatkichlarini nazorat qilish, sog'lom ovqatlanish tamoyillari va ularga rioya qilish amaliyotlarini keng targ'ib etish.

Oziq-ovqat xavfsizligi va sog'lom ovqatlanishni ta'minlashning strategik maqsadi — mamlakat aholisini yetarli hajmda xavfsiz, sifatli va arzon qishloq xo'jaligi mahsulotlari hamda hozirgi va istiqboldagi iste'mol ehtiyojlari va ratsion me'yorlari darajasida oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, shuningdek, aholi o'rtasida sog'lom ovqatlanishni targ'ib qilishdan iborat. Mazkur farmon mazmunidan ham ko'rinish turibdiku, mamlakatimiz iqtisodiyoti va jamiyatining hozirgi rivojlanish bosqichining eng muhim muammolaridan biri oziq-ovqat xavfsizligi va aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'laqonli ta'minlash va oziq-ovqat korxonalari faoliyatini innovatsion usulda tashkil etgan holda, belgilangan maqsadlarga o'z vaqtida resurslarni sarf qilishning yo'llari miqdori orqali erishishga imkon beruvchi mexanizmni joriy qilish bilan birga ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va aholini sifatli oziq-ovqat bilan ta'minlashdan iboratdir. Zотан, "oziq-ovqat xavfsizligi va sog'lom ovqatlanishni ta'minlashning strategik maqsadi — mamlakat aholisini yetarli hajmda xavfsiz, sifatli va arzon qishloq xo'jaligi mahsulotlari hamda hozirgi va istiqboldagi iste'mol ehtiyojlari va ratsion me'yorlari darajasida oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, shuningdek, aholi o'rtasida sog'lom ovqatlanishni targ'ib qilishdan iborat"

Davlatimiz tomonidan olib borilayotgan siyosatida inson o'z ehtiyoji uchun yetarli darajada mahsulot sotib olish imkoniyatiga ega bo'lishi oliy maqsad hisoblanadi. Zero, insonning o'z ehtiyoji uchun yetarli darajada mahsulot sotib olish imkoniyatiga ega bo'lishi ham oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlovchi jarayondir.

Strategiyanda kutilayotgan natijada ham "Oziq-ovqat xavfsizligining ta'minlanishi va sog'lom ovqatlanish tizimining to'liq joriy qilinishi, aholi o'rtasida to'yib ovqatlanmaslikka barham berilishi — ovqatlanish bilan bilvosita yoki bevosa bog'liq kasalliklarning keskin kamayishiga asos bo'ladi hamda aholining o'rtacha umr ko'rishini hozirgi 72 yoshdan 78 yoshga uzaytirish imkoni yaratilish natijasi kutilmoqda.

**Xulosa:** qilib aytganda, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash deganda nafaqat mamlakatda mavjud resurslardan unumli va oqilona foydalanish, balki fan-texnika yutuqlariga asoslangan holda, holini oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarini maksimal qondirish tushuniladi. Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlarining sanitariya, veterinariya, fitosanitariya normalari va qoidalariga mosligi ham ahamiyatga molik.

Xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda sanoat korxonalari faoliyatining mavjud mexanizmining puxta ishlangangaligi va uning iqtisodiyotdagi ulushi va salmog'ini kengayishi natijada esa aholini xavfsiz va sifatli oziq-ovqat bilan ta'minlanishiga olib keladi. Oziq-ovqat sanoati korxonalari o'z faoliyatini va uning rentabelligini baholash uchun tarkibiga nafaqat moddiy faoliyat samaradorligi balki, ichki

**"PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION  
OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"**

resurslar salohiyati samaradorligini oluvchi oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatining iqtisodiy faoliyatining integral ko'rsatkichidan foydalanish tavsiya etiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:**

1. Ziyaviddinova N.M. Oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatin iqtisodiy samaradorligini oshirish. Diss. i.f.n. Bux oz.ov YeSTI 155 b. B. – 2006.
2. Umarov I.Y. Oziq-ovqat sanoatida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish (Andijon viloyati misolida). Diss. i.f.n. AMII 149 b. A. – 2009 6. Пол